

MAQOLLAR VA TOPISHMOQLAR ASOSIDA YOSHLARDA AXLOQIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH MODELLARI

Jumaboyeva E'zoza Sherzod qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola yoshlarda axloqiy tarbiyani shakllantirishda xalq og'zaki ijodining muhim janrlari bo'lgan maqollar va topishmoqlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqotda maqollar orqali ezgulik, halollik, mehnatsevarlik kabi axloqiy qadriyatlarni singdirish, topishmoqlar yordamida esa tafakkur, kuzatuvchanlik va ma'naviy ongni rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, yoshlarga mo'ljallangan axloqiy tarbiya modellarini yaratishda milliy merosdan samarali foydalanish yo'llari tahlil qilinadi. Maqol va topishmoqlarning tarbiyaviy ta'siri ta'lim jarayonida yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan asoslanadi. Ushbu modellar yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Axloqiy tarbiya, xalq og'zaki ijodi, maqollar, topishmoqlar, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ma'naviy kamolot, tarbiyaviy modellar, pedagogik yondashuv, ma'naviy-ma'rifiy jarayon.

Аннотация: Данная тема направлена на раскрытие воспитательных возможностей таких важных жанров устного народного творчества, как пословицы и загадки, в формировании нравственного воспитания молодежи. В исследовании рассматриваются вопросы привития через пословицы таких нравственных ценностей, как доброта, честность, трудолюбие, а с помощью загадок — развитие мышления, наблюдательности и духовного сознания. Также анализируются пути эффективного использования национального наследия при создании моделей нравственного воспитания для молодежи. Воспитательное влияние пословиц и загадок обосновывается их положительным воздействием на мировоззрение и поведение учащихся в образовательном процессе. Данные модели служат цели воспитания молодого поколения в духе уважения как к национальным, так и к общечеловеческим ценностям.

Ключевые слова: нравственное воспитание, устное народное творчество, пословицы, загадки, воспитание молодежи, национальные ценности, духовное развитие, воспитательные модели, педагогический подход, духовно-просветительский процесс.

Abstract: This study focuses on revealing the educational potential of important genres of oral folk art, such as proverbs and riddles, in shaping the moral education of

youth. The research examines the use of proverbs to instill moral values such as kindness, honesty, and diligence, and the use of riddles to develop thinking, observation skills, and spiritual awareness. It also analyzes effective ways of utilizing national heritage in creating models of moral education for young people. The educational impact of proverbs and riddles is supported by their positive influence on students' worldview and behavior in the educational process. These models serve to nurture the younger generation with respect for both national and universal human values.

Keywords: moral education, oral folk art, proverbs, riddles, youth education, national values, spiritual development, educational models, pedagogical approach, spiritual and educational process.

Kirish: Insoniyat tarixida soʻzning qudrati har doim katta ahamiyatga ega boʻlgan. Ayniqsa, yosh avlodning tarbiyasi va intellektual rivojlanishida xalq ogʻzaki ijodi — maqol va topishmoqlar muhim vosita hisoblanadi. Ular nafaqat yoshlarning tafakkurini rivojlantiradi, balki axloqiy va maʼnaviy tarbiya berishda ham samarali roʻl oʻynaydi. Ushbu maqolada maqol va topishmoqlarning kelib chiqishi hamda ularning yoshlar tarbiyasidagi oʻrni batafsil koʻrib chiqiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlod tarbiyasi masalasi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi, begona madaniy taʼsirlarning kuchayishi yoshlarda maʼnaviy boʻshliq paydo boʻlishiga sabab boʻlayotgan bir paytda, milliy tarbiya vositalariga murojaat qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan xalq ogʻzaki ijodining qadimiy va sinovdan oʻtgan shakllari boʻlgan maqollar va topishmoqlar yoshlarda axloqiy tarbiyani shakllantirishda samarali pedagogik manba sifatida qaraladi. Mazkur mavzuda maqol va topishmoqlarning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinib, ularni taʼlim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish asosida axloqiy tarbiyani rivojlantirish modellari ishlab chiqildi.

Axloqiy tarbiya shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor meʼyorlari, ezgulik va yovuzlik, adolat va masʼuliyat haqidagi tasavvurlarini shakllantirish jarayonidir. Yoshlar davrida axloqiy qarashlar mustahkamlanib, insonning butun hayoti davomida amal qiladigan ichki mezonlarga aylanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda axloqiy tarbiya faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, hayotiy misollar, obrazli fikrlash va qiyoslash orqali amalga oshirilishi taʼkidlanadi. Aynan shu jihatdan maqollar va topishmoqlar oʻziga xos tarbiyaviy qudratga ega.

Maqol — xalq ogʻzaki ijodi janri; qisqa va loʻnda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan maʼnoli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etika va estetika tuygʻulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan.

Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda shaklga kelgan. Ularning asosiy xususiyati shundaki, axloqiy g'oya to'g'ridan-to'g'ri buyruq shaklida emas, balki hayotiy xulosa tarzida beriladi.

Masalan, "Halol mehnat — sharaf" kabi maqollar yoshlarda mehnatsevarlik va halollik tushunchalarini mustahkamlaydi. Bu jarayonda yosh ongida axloqiy norma majburlov orqali emas, balki ichki ehtiyoj sifatida shakllanadi. Qiyosiy jihatdan qaralganda, zamonaviy motivatsion shiorlar ko'pincha vaqtinchalik ta'sir ko'rsatsa, maqollar barqaror va uzoq muddatli tarbiyaviy kuchga ega.

Topishmoqlar yoshlarni fikrlashga, tahlil qilishga va mantiqiy xulosa chiqarishga undaydi. Ularning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, topishmoq yechish jarayonida yoshlar sabr-toqat, kuzatuvchanlik va aqliy intizomni o'zlashtiradi. Topishmoqlarda ko'pincha tabiat, mehnat qurollari, insoniy fazilatlar ramziy shaklda ifodalanadi. Bu esa axloqiy tushunchalarning samarali singdirilishiga xizmat qiladi.

Maqollar bilan qiyoslanganda, topishmoqlar faol fikrlashni talab qilishi bilan ajralib turadi, ya'ni tarbiya jarayonida yoshlar passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi.

Axloqiy tarbiyani rivojlantirish modellari

1. An'anaviy model - bu modelda maqol va topishmoqlar dars jarayonida tushuntirish va izohlash orqali qo'llaniladi. O'qituvchi yetakchi rolni bajaradi.

2. Faol-interaktiv model - topishmoqlar asosida munozaralar olib boriladi va guruhlar bilan ishlash ko'nikmasi shakllantiriladi, yoshlar mustaqil xulosa chiqarishni o'rganadi.

3. Integrativ model - maqol va topishmoqlar adabiyot, tarix, tarbiya fanlari bilan uyg'unlashtiriladi. Bu model eng samarali hisoblanadi.

Bugungi raqamli ta'lim muhitida maqol va topishmoqlarni multimedia, sahnalashtirish va interaktiv platformalar orqali berish ularning ta'sirchanligini oshiradi. Bu yondashuv an'anaviy og'zaki usullarga nisbatan yoshlar uchun jozibaliroq hisoblanadi.

Topishmoqlar — so'z o'yinlari va mantiqiy vazifalarga asoslangan qisqa savol-javoblardir. Tarixiy manbalarga ko'ra, ular asrlar davomida xalq og'zaki ijodi orqali shakllangan. O'rta asrlarda topishmoqlar yoshlarni intellektual jihatdan rivojlantirish va bilim berish vositasi sifatida keng qo'llangan. Ko'plab topishmoqlar tabiat hodisalari, hayvonlar, mevalar va kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda ham topishmoqlar mantiqiy fikrlash va hazilni rivojlantirish uchun ishlatilgan. Topishmoqlarning asosiy maqsadi — yoshlarning diqqatini, tafakkurini va xotirasini mustahkamlashdir.

Maqollar va topishmoqlar asosida yoshlarda axloqiy tarbiyani rivojlantirish milliy pedagogikaning samarali yo'nalishlaridan biridir. Ular nafaqat axloqiy bilim beradi, balki yoshlarning ongida mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantiradi. Qiyosiy

tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu ikki janr uyg'unligida yaratilgan tarbiyaviy modellar yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, topishmoqlar til va nutq madaniyatini oshiradi. Turli so'z o'yinlari va iboralar orqali yoshlar lug'atini boyitadi, so'zlarni to'g'ri ishlatishga o'rgatadi, nutqini aniq va ifodali qilishga undaydi. Shuningdek, topishmoqlar ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi. Ular noan'anaviy, kutilmagan yechimlarni topishga, turli fikrlarni bog'lashga va tasavvur doirasini kengaytirishga yordam beradi. Shunday qilib, topishmoqlar nafaqat o'yin yoki qiziqish vositasi bo'lib qolmay, balki yoshlarning tafakkuri, nutqi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Agar maqollar va topishmoqlar vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketsa, bu yoshlar tarbiyasida va jamiyatda sezilarli oqibatlariga olib keladi. Avvalo, yoshlar axloqiy va ma'naviy tarbiyasidan zaruriy vositalar yo'qoladi. Maqollar, odatda, hayotiy tajriba va axloqiy saboqlarni qisqa va ta'sirli shaklda yetkazadi. Ular bo'lmagan taqdirda, yoshlar o'z xatti-harakatlarini shakllantirishda yetarli axloqiy va ma'naviy ko'rsatmalarga ega bo'lmay qoladi. Shuningdek, mantiqiy fikrlash va ijodiy tafakkur rivojlanishi sustlashadi. Topishmoqlar yoshlarni o'ylashga, muammolarni tahlil qilishga va noan'anaviy yechimlar topishga o'rgatadi. Agar ular yo'q bo'lib ketsa, yoshlar fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatini yo'qotadi. Bundan tashqari, til va nutq madaniyati ham zaiflashadi. Topishmoqlar va maqolalar orqali lug'at boyiydi, nutq ifodali bo'ladi. Ular yo'qolsa, yoshlar so'z boyligi va nutq madaniyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi.

Umuman olganda, maqol va topishmoqlarning yo'qolishi xalqning ma'naviy merosini saqlash va yosh avlodni tarbiyalashda katta bo'shliq yaratadi, yoshlar ongida axloqiy qadriyatlar yetarlicha shakllanmay qoladi va jamiyatning madaniy ildizlari zaiflashadi. Shu sababli ularni asrab-avaylash va yoshlar tarbiyasida faol qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Maqol va topishmoqlar yo'qolib ketmasligi uchun avvalo ularni yoshlar hayotiga faol kiritish muhimdir. Masalan, maktablarda darslar jarayonida topishmoqlarni o'quv mashg'ulotlariga, sinf soatlariga kiritish, ona tili va adabiyot darslarida maqol va matallardan foydalangan holda o'rgatish kerak. Shu tarzda, yoshlar nafaqat o'quv jarayonida, balki kundalik hayotda ham ularni ishlatishga odatlanadi.

Bundan tashqari, oilada ham bu merosni saqlash muhimdir. Ota-onalar bolalariga ertak aytib berayotganda yoki suhbat davomida maqol va topishmoqlardan foydalanishi, ularni eslatib turishi yoshlarning til boyligini va tafakkurini rivojlantiradi. Shuningdek, madaniy va ommaviy tadbirlar orqali ham maqola va topishmoqlarni saqlash mumkin. Masalan, maktab va mahalliy kutubxonalarda "topishmoq musobaqalari", "maqollar kechalari" tashkil etish, ularni jamiyatda keng targ'ib qilish yoshlarni qiziqtiradi va ularni eslab qolishga undaydi.

Xulosa

Topishmoqlar va maqollar yoshlar tarbiyasida axloqiy, mantiqiy va ma'naviy jihatdan muhim vositalardan bir sanaladi. Topishmoqlar intellektual rivojlanishga, maqollar esa axloqiy va ma'naviy tarbiyaga hissa qo'shadi. Shuning uchun maktablarda, oilada va madaniy tadbirlarda ushbu vositalardan keng foydalanish yoshlar ongini boyitadi va ularni jamiyatga foydali insonlar qilib tarbiyalaydi. Avvalo, ular mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Topishmoqni yechish uchun bola vaziyatni tahlil qilishi, tafakkurini ishga solishi va turli variantlarni solishtirib qaror chiqarishi kerak bo'ladi. Shu bilan birga, u diqqat va xotirani mustahkamlaydi. Topishmoqlarning javobini eslab qolish, savolning tafsilotlariga e'tibor berish, yoshlarning diqqatini jamlash va xotirasini faol ishlatishga yordam beradi.

Oxir-oqibat, maqol va topishmoqlarni yo'qolishidan saqlash — bu xalqning ma'naviy merosini asrab-avaylash va yosh avlodni tarbiyalash masalasi. Ularni o'rgatish va ishlatish orqali nafaqat yoshlarning tafakkuri va nutq madaniyati rivojlanadi, balki milliy qadriyatlar va madaniy ildizlar ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov M. Xalq pedagogikasi va zamonaviy ta'lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. Yunusova D.X. Educational possibilities of folk origin (fairy tale, proverb, riddle) – bu maqola xalq og'zaki ijodi janrlarining axloqiy va intellektual rivojlanishga ta'sirini tahlil qiladi (2025)
3. Qodirov B. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
4. <http://www.ziyouz.com>
5. <http://www.uzlit.uz>
6. <http://www.ma'naviyat.uz>